

**Agar siz kam tonnajli  
yuk avtomobili  
haydovchisi bo'lib  
ishlasangiz,  
sizga quyidagi  
ma'lumotlar  
kerak bo'ladi!**

**2026 yil 1 iyuldan**  
yangi qoidalar  
kuchga kiradi



# Siz kam tonnajli yuk avtomobili (LCV) haydovchisimisiz? YI (Yevropa Ittifoqi) chegaralaridan o'tasizmi?

2026 yilning 1 iyulidan boshlab avtomobilni **boshqarish va dam olish rejimiga** tegishli qoidalar hamda **haydovchilarni xizmat safariga yuborish** qoidalari LCV haydovchilariga nisbatan qo'llanila boshlaydi. Asosiy faktlar:

- Maksimal ruxsat etilgan massasi 2,5 tonnadan oshib, 3,5 tonnagacha bo'lgan (har qanday treyler yoki yarim-treylerni o'z ichiga olgan) transport vositalariga tatbiq etiladi.
- Yuklarni xalqaro tashish yoki ijara yoki mukofot evaziga ichki transport xizmatini amalga oshiradigan transport vositalariga tatbiq etiladi.
- Ushbu transport vositalariga aqlli takograf o'rnatilishi shart.
- Yevropa Ittifoqi va Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lmagan mamlakatlar fuqarolari bo'lgan haydovchilarga tatbiq etiladi, agar ular Yevropada tashkil etilgan transport kompaniyasida ishlasalar.


## Asosiy qoidalar: haydash va dam olish rejimi

Maksimal haydash vaqti va minimal tanaffus va dam olish vaqtlari haqidagi ma'lumot bilan **tanishib chiqing**:

### KUNDALIK HAYDASH VAQTI CHEKLOVI



### HAFTALIK HAYDASH VAQTI CHEKLOVI



### 1-VARIANT



4,5 soatlik haydashdan keyin kamida 45 daqiqa.

### TANAFFUS

### 2-VARIANT



Tanaffus ikki qismga bo'linishi mumkin:

1. Birinchi qism uchun kamida 15 daqiqa;
2. Ikkinchi qism uchun kamida 30 daqiqa;

Kamida uzluksiz 11 soat

**KUNDALIK  
DAM  
OLISH\***

**1-VARIANT**



**2-VARIANT**



Uni ikki davrga 1: kamida 3 soat uzluksiz  
bo'lishi mumkin: 2: kamida 9 soat uzluksiz

**HAFTALIK DAM  
OLISH\*\***



**45 soat**



Kamida uzluksiz 45 soat

\* Maxsus holatlarda kunlik dam olish muddati kamida 9 soatgacha qisqartirilishi mumkin.

\*\* Maxsus hollarda, keyinchalik o'rnini to'ldirish sharti bilan qisqartirilishi mumkin (dam olish muddati kamida 24 soat, biroq 45 soatdan kam).

## Asosiy qoidalar: haydovchilarni xizmat safariga yuborish

### Xizmat safariga yuborilgan haydovchi degani nimani anglatadi?

Agar siz YI ning mamlakatlaridan birida ro'yxatdan o'tgan operator xodimi bo'lsangiz va u yoki bu transport operatsiyalarini amalga oshirish uchun boshqa YI davlatida ishlash uchun vaqtincha xizmat safariga yuborilgan bo'lsangiz, YI qonunlariga ko'ra siz xizmat safariga yuborilgan haydovchi hisoblanasiz.

### Transport operatsiyasining turi

#### KABOTAJ

Siz ishlayotgan ish beruvchi siz ichki transport operatsiyalarini amalga oshiradigan YI mamlakatida ro'yxatga olinmagan.

Siz komandirovkaga yuborilgan haydovchi deb hisoblanasiz



#### KROSS-TREYDYI

ning ikki mamlakati o'rtasida yoki YI mamlakati va YI ga a'zo bo'lmagan mamlakat o'rtasidagi transport operatsiyalari, sizning ish beruvchingiz bu mamlakatdan birortasida ro'yxatdan o'tmagan bo'lsa.

Siz komandirovkaga yuborilgan haydovchi deb hisoblanasiz



#### IKKI TOMONLAMA

Ish beruvchingiz ro'yxatdan o'tgan YI mamlakatidan boshqa davlatga (YI ga kiruvchi yoki YI ga a'zo bo'lmagan) yuk tashish, yoki boshqa har qanday mamlakatdan (YI ga kiruvchi yoki YI ga a'zo bo'lmagan) ish beruvchingiz ro'yxatdan o'tgan YI davlatiga qaytish.

Siz komandirovkaga yuborilgan haydovchi deb hisoblanmaysiz



#### TRANZIT

Yuk yuklamasdan yoki tushirmasdan YI mamlakati hududini kesib o'tish.

Siz komandirovkaga yuborilgan haydovchi deb hisoblanmaysiz



## Nega xizmat safariga yuborilgan haydovchilarga yuqori ish haqi stavkalari qo'llanilishi mumkin?

Xizmat safariga yuborilgan haydovchilar uchun maxsus qoidalar qo'llaniladi. Agar xizmat safari mamlakatidagi umumiy ish haqi va ish sharoitlari sizning ish beruvchingiz ro'yxatdan o'tgan mamlakatdagidan yaxshiroq bo'lsa, siz yuqoriroq ish haqi darajasi va yaxshilangan mehnat sharoitlariga ega bo'lishga haqlisiz. Tegishli daraja yuqori bo'lmasa, ro'yxatdan o'tgan mamlakatdagi kabi qoidalar qo'llaniladi.

## Yo'l bo'yida tekshirilganda xizmat safariga yuborilgan haydovchi yo'l inspektoriga qanday hujjatlarni taqdim etishi kerak?

Yo'l bo'yida tekshirilganda siz bilan quyidagi hujjatlar bo'lishi kerak:

- **Xizmat safari guvohnomasi:** Ish beruvchingiz tomonidan YI ning ichki bozor Axborot tizimiga (IMI) bog'liq Yo'l transporti uchun xizmat safari guvohnomalari portali (RTPD portali) orqali taqdim etilgan xizmat safari guvohnomasining nusxasi (elektron yoki qog'oz).
- **Transport hujjatlari:** Masalan, tovar-transport yukxatlari (CMR hujjatlari)
- **Taxograf ko'rsatkichlari:** Avtomobilingizga o'rnatilgan taxograf ma'lumotlari, jumladan, haydovchi kartangiz ma'lumotlari.

## Ish beruvchingizning asosiy majburiyatlari

- **Ish jadvalini** barcha haydovchilar haydash va dam olish rejimiga rioya qila oladigan tarzda **tashkil etish**.
- **Haydovchilarni** talablarga rioya qilish, shu jumladan taxografdan foydalanish bo'yicha **aniq ko'rsatmalar va o'quv bilan ta'minlash**.
- Haydovchilarni qoidalarni buzishga undaydigan **holatlarning oldini olish va bartaraf etish**, masalan, faqat kilometr va tezlikka asoslangan to'lov tizimlaridan foydalanish.
- Haydovchining qoidalarga rioya etishlarini nazorat qilish uchun **taxograf ko'rsatkichlarini kuzatib borish** va tekshiruvlar o'tkazilishi holatiga tayyor bo'lish uchun taxograf va haydovchi kartasidan ma'lumotlarni 12 oy davomida saqlash.
- Avtomobil kabinasidan dam olish uchun foydalanish mumkin emasligini inobatga olgan holda haftalik kamida 45 soatlik dam olish davriga rioya qilish bilan bog'liq haydovchilar uchun **har qanday turar joy xarajatlarini qoplash**.
- **Haydovchiga** muayyan haftalik dam olish vaqtiga qarab ketma-ket 3 yoki 4 haftalik har bir davr uchun uyga (yoki operator bazasiga) **qaytishi imkoniyatini ta'minlash**.
- Yo'l bo'yida tekshirish paytida inspektorga taqdim etilishi kerak bo'lgan **barcha kerakli hujjatlar avtomobilda bo'lishini ta'minlash**.
- **Xizmat safari guvohnomasini** YI ning ichki bozor Axborot tizimiga (IMI) bog'liq Yo'l transporti uchun xizmat safari guvohnomalari portali (RTPD portali) orqali **o'z vaqtida taqdim etish**.

## Amaliy xulosalar

- **HAR DOIM** maksimal haydash vaqti cheklovlari va minimal tanaffus va dam olish vaqti talablariga rioya qiling.
- Haydash vaqtini, tanaffuslarni, dam olish vaqtlarini va “boshqa ish” faoliyatini aniq qayd etish uchun **HAR DOIM** taxograftan foydalaning.
- **HAR DOIM** qoidalarga rioya qilishga ta’sir qilishi mumkin bo’lgan har qanday kechikishlar yoki kutilmagan holatlar haqida ish beruvchingizni xabardor qiling.
- **HAR DOIM** xizmat safari chog’ida har doim xizmat safari guvohnomangiz va kerakli hujjatlaringiz borligini tekshiring.
  
- Kundalik va haftalik haydash vaqti cheklovlaridan oshib **KETMANG**.
- Taxograf ko’rsatkichlarini soxtalashtirmang yoki buzib **KO’RSATMANG**.
- Agar siz charchagan bo’lsangiz yoki kerakli dam olish vaqtida dam olmagan bo’lsangiz, avtomobilni **BOSHQARMANG**.
- Majburiy minimal dam olish davrlarini o’tkazib yubormang yoki **QISQARTIRMANG**.
- Avtomobilning kabinasidan kamida 45 soatlik majburiy haftalik dam olish uchun **FOYDALANMANG**.





## Yevropa mehnat boshqarmasi

Landererova 12

811 09 Bratislava, Slovakiya

[www.ela.europa.eu/lcv2026](http://www.ela.europa.eu/lcv2026)



Dam olish vaqti  
qoidalari haqida  
qo'shimcha ma'lumot



Komandirovka  
(yuborish) haqida  
qo'shimcha ma'lumot

© Yevropa mehnat boshqarmasi, 2025-yil

Yevropa mehnat boshqarmasi (ELA) yoki ELA nomidan ish ko'rayotgan har qaysi shaxs mazkur hujjatdagi ma'lumotlardan foydalanilganlik uchun javobgar hisoblanmaydi.

Manbasi ko'rsatilgan holatda qayta chop etishga ruxsat etiladi.

Mualliflik huquqiga ELA egalik qilmaydigan har qaysi fotosurat yoki boshqa materiallardan foydalanish yoki qayta chop etish uchun bevosita muallif huquqi egasining ruxsati talab qilinadi.

Tasvirlarning mualliflik huquqi: © progressman - stock.adobe.com, © am - stock.adobe.com.

Lyuksemburg: Yevropa Ittifoqining nashrlar byurosi, 2025-yil

Print ISBN 978-92-9415-135-3 doi:10.2883/6457605 HP-01-25-026-UZ-C

PDF ISBN 978-92-9415-134-6 doi:10.2883/4579034 HP-01-25-026-UZ-N